

YANGILANGAN KONSTITUTSIYADA INTERNET VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIGA YO'NALISHIGA OID O'ZGARISHLAR VA QO'SHIMCHALAR.

Abdulxayev Nodirbek Murodulloyevich
Jamoat xavfsizligi universiteti kafedrasi o'qituvchisi

Anatatsiya: Ushbu maqolada yangilangan konstitutsiyada internet va axborot texnologiyalariga kiritilgan o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotlar yoritilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: konstitutsiya, axborot, internet, texnologiya, deklaratsiya, modda, axborot tarqatish, axborotni izlash

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023 yil 1 maydan e'tiboran kuchga kirdi. Amaldagi konstitutsiyamizning 33-moddasida har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi, o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga egaligi, fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkinligi belgilangan.

Bu o'rinda amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnoligi ham qayd etilgan. Ko'rinib turibdiki, Asosiy qomusimizda axborot olish huquqi insonning asosiy huquqlaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

Lekin o'ttiz yil oldin qabul qilingan bu norma jamiyat hayotida ro'y berayotgan ulkan o'zgarishlarni, axborot texnologiyalarining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ta'sirini har jihatdan qamrab ololmasligi ko'rinib turibdi.

Bugun, ya'ni 21-asrda, insonlarning, ayniqsa yoshlarning fikr va so'z erkinligi, o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish singari huquqlarini qanday amalga oshirilishi ularning axborot resurslari, kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internetdan erkin foydalanishlariga bevosita bog'liq.

Shunday ekan, **hayot tarzimizning, kasbiy faoliyatimizning salmoqli bir bo'lagi, komil inson shakllanishining asosiy omillaridan biri bo'layotgan Global internet tarmog'idan erkin foydalanish huquqining asosiy qomusimiz – Konstitutsiyaga kiritilishi ayni muddao hisoblanadi.** Bu xalqaro huquq normalarida, rivojlangan davlatlar konstitutsiyalarida mustahkamlangan va o'zining samarasini ko'rsatayapti.

Masalan, BMTning 2016 yil 5 iyuldagi rezolyutsiyasida Internetdan foydalanish asosiy inson huquqlaridan biri ekani ta'kidlangan.

2022 yilning aprel oyida AQSh, Evropa ittifoqiga a'zo davlatlar va boshqa 32 mamlakatlar tomonidan «Internet kelajagi Deklaratsiyasi»da qabul qilindi. Unda

zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, Internetning «ochiq, ishonchli va xavfsiz»ligini ta'minlash masalalarga katta e'tibor qaratilgan. Bu, eng avvalo, internetning jamiyat va insoniyat taraqqiyotidagi o'rni va roli naqadar yuksalayotganidan dalolatdir.

Finlandiya, Estoniya, Ispaniya singari davlatlarda zamonaviy axborot texnologiyalardan erkin foydalanish davlat tomonidan kafolatlanishi belgilangan. Fransiya Konstitutsiyaviy kengashi 2009 yili internet va axborotdan foydalanishni inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida e'tirof etgan.

Bugun jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan, o'z jamiyati, iqtisodiyoti, umuman barcha sohalarni raqamlashtirishga kirishgan Yangi O'zbekiston bu siyosiy jarayonlardan chetda qolmaslik uchun faol harakat qilmoqda. Bu – hozirgi zamon davr talabidir.

Masalaning yana bir diqqatga sazovor jihati bor. Axborot va aloqa texnologiyalarining doimiy, uzluksiz rivojlanishib borishi, ulardan foydalanishning yangi shakl va vositalarining doimo paydo bo'lishi kibermakonda huquqbuzarliklar, jinoyatlar sonini ko'paytishiga olib kelishi mumkin va bu vaziyat ularga qarshi kurashning yangi, zamonaviy, nihoyatda takomillashgan usullarini yaratishni, tartibga solishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qilishi tabiiy. Ya'ni milliy qonunchiligimizda axborot xavfsizligi, kiberoxavfsizlik masalalariga oid normalarni tizimli ravishda axborot texnologiyalari rivojiga parallel ravishda takomillashtirilib borishimiz kerakligini davrning o'zi taqazo qilmoqda. Buning uchun huquqiy asos yaratilishi kerak. Yangi Konstitutsiyada Internetdan erkin foydalanish huquqining mustahkamlanishi milliy qonunchiligimizdagi shu sohadagi munosabatlarni tartibga solish, ya'ni barcha munosabatlar qonun doirasida bo'lishini ta'minlash uchun zarur platforma bo'ladi.

Bundan tashqari Internet tarmog'idan axborot olish va uni tarqatishdagi suiste'molliklarni, inson huquqlarining poymol bo'lishi, yoshlarimizning noan'anaviy tahdidlar ta'siriga tushish hollarining oldini olish, boshqa shaxslarning barcha konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish maqsadida, shaxsiy sir, davlat siri yoki boshqa sohalarga taalluqli sir deb e'tirof etilgan axborotlarni olish va tarqatishni qonunga muvofiq cheklash lozim.

Boshqa barcha xolatlarda har bir fuqaro axborot resurslari, kommunikatsiya texnologiyalari, internetdan erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Bu normaning konstitutsiyada mustahkamlanishi maqsadga muvofiqdir.

Yangi Konstitutsiyamiz loyihasidagi umumxalq referendumiga qo'yiladigan o'zgarishlar haqida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

33-modda. Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega.

Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yiladi [1]

Shuni e'tirof etish kerakki, 2023 yil yanvar holatiga ko'ra Dunyoda internet foydalanuvchilari soni 5,16 mlrd.dan oshdi [2], bu dunyo aholisining 67% ni tashkil qiladi. Ushbu ko'rsatgich O'zbekiston Respublikasida 31 milliondan oshdi [5]. Bu esa 86% (O'zbekistonda aholi soni 36 milliondan ortiq [3]) ni tashkil qiladi.

2023 yil fevral holatiga ko'ra Dunyoda Internet ijtimoiy tarmoqlari faol foydalanuvchilari soni 4.74 mlrdan oshdi [4], bu dunyo aholisining 59 % ni tashkil qiladi. Ushbu ko'rsatgich O'zbekiston Respublikasida 7 million oshdi [4], bu esa aholi sonining 19% (O'zbekistonda aholi soni 36 milliondan ortiq [3]) ni tashkil qiladi.

Yuqorida keltirilgan faktlar, Yangi Konstitutsiyaga keltirilgan o'zgarishlarni ayni vaqtida qabul qilinganidan darak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi "Yangi konstitutsiya" loyihasi. 33 modda.
2. <https://www.statista.com/statistics/617136/digital-population-worldwide/>
3. <https://stat.uz/uz/59-foydali-ma-lumotlar/5859-o-zbekiston-aholisi-3>.
4. <https://www.statista.com/statistics/278414/number-of-worldwide-social-network-users/>
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/15/internet-users/>